

**ABDULLA QODIRIY IJODIDA MILLIY QADRIYATI****Zokirjonov D.J****Usmonova O.U**Ilmiy rahbar: **G.Sh.Jo'raeva**

Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Yaqinda «O'tkan kunlar»ni qaytadan sinchiklab o'qidim. Kitobning so'nggi sahifalariga kelganda ko'zimdan tirqirab yosh chiqib ketdi. Shunday «jiddiy adasi»ning nimaga yig'layotganini tushunmay xayron bo'lib turgan o'g'il qizim oldida o'zimni xech tuxtata olmay yig'lardim. Bu faqat asar qaxramonlari taqdiriga achinib yig'lash emas edi

Oradan yillar o'tgani sari Abdulla Qodiriydek favqulodda iste'dod egasining betakror poetik tafakkur mevasi bo'lgan «O'tkan kunlar»dek birinchi o'zbek romani qadr topayotgani sir emas.

Abdulla Qodiriy va jadidchilik masalasi mavzusi qodiriyshunoslikninggina emas, adabiyotshunosligimizning ham muhim va dolzarb, lekin shu paytgacha qadar etarlicha e'tibor berilmay kelayotgan masalalaridan. Muhimligi shundaki, Abdulla Qodiriydek o'zbek adabiyotida yangi yo'l-yo'nalishni boshlab bergan, o'zbek romanchilik maktabiga asos solgan siymoning jadidchilik nomi bilan tarixga kirgan XX asr boshidagi etakchi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy harakatdan chetda turishi mumkin emas edi. To'g'rirog'i, Qodiriy fenomeni, aslida, jadidchilikning adabiyotda namoyon bo'lishidir. «O'tkan kunlar», birinchi navbatda jadid adabiyotining, ikkinchi nomi bilan aytganda, yangi o'zbek adabiyotining eng kurkam mahsulidir.

Madaniy-ma'naviy ishlarda XIX asrning 90-yillarida ochilgan «usuli jadid» maktablaridan o'nlab yoshlarni taraqqiy qilgan mamlakatlar oliy o'quv yurtlariga yuborish



va zamonaviy milliy kadrlar etkazish, nihoyat, o'z milliy universitetini ochish darajasigacha ko'tarildi.

Milliy matbuotni maydonga keltirdi, milliy teatrga asos soldi. Badiiy ijod sohasida esa, oddiy maishiy-axloqiy mavzular tasviridan o'zlikka talpingan otalarimizning turmush va intilishlarini, murakkab va g'alayonli ruhiyatini butun ziddiyati bilan ochib beruvchi keng diapazonli, rang-barang janrlarga ega serrang va serohang adabiyotgacha bo'lgan yo'l bosib o'tilgan. Binobarin, yangi o'zbek adabiyotimizning eng sara namunalari maydonga kelgan 20-yillarning birinchi yarmi jadidchilikning so'nggi bosqichi. Jadidchilik ma'naviy-madaniy sohalarni yangi izga solgani singari adabiyotda ham uch buyuk boniyni o'rta qari qari chiqardi.

Qodiriy o'zbek romanchiligining otasi bo'lib tarixga kirgan. Abdulla Qodiriyning shakllanishida jadidchilikning roli va o'rni masalasi. Abdulla Qodiriy Turkistonda jadidchilik harakat sifatida endigina nish o'rayotgan, «usuli jadid» maktablari o'lkada yakkam-dukkam ochila boshlagan bir paytda tug'ildi. O'shanda yurtimizga mashhur «Tarjimon»ning kela boshlaganiga 10 yildan oshgan edi.

Turkiston adabiyotini zimdan kuzatib kelayotgan A. N. Samoylovich 1909 yildayoq bu erda yangi adabiyot maydonga kelayotganini ma'lum qilgan va haqiqatan ham «Milliy she'rlar» yozila boshlagan, 10-yillardan teatr asarlari, zamonaviy nasr va o'tkir publitsistika davriy matbuot va noshirlikni shoshirib qo'ygan edi.

Abdulla Qodiriy asarlarining, birinchi navbatda, «O'tkan kunlar»ning jadid adabiyotiga aloqadorligi masalasi. Nazarimda, bu erda ham gap ko'proq atamalarimizda va bir qadar yondashuvlarimizning bir-biridan farqlanishida. Agar biz jadidchilikning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkistonning asosiy va etakchi harakatchiligi ekanini e'tirof etsak, uning shartli ravishda ajratish mumkin bo'lgan «tashakkul»(XIX asrning 80-90-yillari), «taraqqiy» (1900-1917 yillar), «tanazzul» (1918-1929) davrlarini ham qabul qilmoq kerak bo'ladi. Uning 1917 yildan 1929 yilgacha bo'lgan davrini tan olmaslik, oktyabr voqeasidan keyinroq sovetlar o'rnatilib, sotsialistik mafkura qaror topdi, inqilobiy



o'zgarishlar amalga oshirilib, yangi jamiyat barpo etildi, degan eski ashulani qaytarish bo'lur ediki, bu haqiqatga xilofligidan tashqari jadidchilikning ham mohiyatiga ziddir. 1917-1929 yillarga mohiyatan faqat ikki tarafdin (jadidchilik, sovetchilik)gina yondashish mumkin. Agar jadidchilik sifatida talqin qilinadigan bo'lsa, bu davr adabiyotini jadid adabiyoti, «O'tkan kunlar»ni esa, uning eng go'zal namunasi sifatida e'tirof etmoq kerak bo'ladi. Masalani bu xil qo'yish sho'ro davrining talab va ehtiyojini ko'zda tutadi. Unga ko'ra, tarix o'tmish va bugunga ajratilib, biri ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yilmog'i, biri rad etilib, ikkinchisi ulug'lanmog'i lozim edi. Yashirishning hojati yo'q, sovet davri adabiyotshunosligi 20-yillarda ham, 60-yillarda ham uni xuddi shu jihatdan tahlil va talqin etdi, ya'ni tariximizning «kirlik», «qora kunlari» nimalar-u, ular qanday ko'rsatilgani ustida fikr yuritdi. Bo'lib o'tgan bahs-munozaralar esa, asosan, bu asarning yuqoridagi andozaga sig'magan jihatlari — muallifning o'z qahramonlariga munosabati, urf-udumlarimiz, an'analarimiz tasviri kabilar borasida ketdi. O'z davrida esa, u sinfiy yondashmaganligi, o'tmishga toshni yaxshiroq otmaganligi uchun qoralangan edi.

Istiqlol davrida esa, u «istiqlol qayg'usi»ni o'zida tashigan asar sifatida tahlil etilmoqda. Bunga qo'shimcha qilib, romanni «o'tkan kunlar»dan «kir» emas, «nur» topgan, benihoya og'ir zamonlarda, hayotlarining eng baxtsiz onlarida ham yuksak ichki madaniyat, nozik didlilik, komil axloq va odob namunalarini namoyish etgan otalarimiz turmushi, go'zal oilaviy munosabatlar, betakror milliy kolorit tasviri orqali o'zlikni tanitmoqqa qaratilgan asar ham demak kerak bo'la-di. Bu esa, jadidchilikning, boshqacha aytganda, milliy uyg'onishning bosh xususiyati, millatni millat qiluvchi an'analar edi. YUqoridagilarga ko'ra, Abdulla Qodiriy jadidchilik va jadid adabiyotining markaziy siymolaridandir.

O'zbek tilining tarixi uzoq. Ammo zamonaviy o'zbek adabiy tilining shakllanishida jadid adiblari, XX asrning 20 yillari matbuot nashrlari, turli ma'rifiy tashkilotlar aynan milliy til istiqboli bilan bog'liq vazifalarni o'z zimmalariga olgan edi. Bu davrda nashr bo'lgan gazeta va jurnallarning har biri o'zicha tajribaviy yo'sinda «adabiy til»ni qo'llagani



ma'lum. Ziyo Said jadidlar matbuoti tarixini yozar ekan, albatta, ularning tili va uslubiga e'tibor berdi; «o'rta shevada», «tili o'zbekcha deyilgan bo'lsa ham, arabcha, forsiya ko'p bo'lishi ustiga o'sha usulda jumlarlar tuzilar edi», «jurnalning sarfiy-nahviy xatolari ham yo'q emas edi» kabi mulohazalarni bildirib, «tilidan o'rnaklar» keltirdi.

Bu davrdagi o'zbek adabiy tiliga e'tibor bergan jadid munaqqidi Vadud Mahmud «Cho'lponning tasviri sof»ligini, Fitratning «o'ziga maxsus tili» bo'lib, «o'zbekchani ikkinchi qatla tirgiz»ganini aytadi. «Bu kunigi til bo'lsa, u eski islomiy ruhdan ayrilg'ondan bittobe' uning istiloh va ta'birlarini, fikr qoliblarini tashlab, oz bo'lsa ham asriy fikrlar, ba'zi bir qoliblar – so'zlar olmoqda va shu yo'l bilan bormoqdalar. Bu yangi tilning bir xususiyati, muhovara (so'zlashuv-B.K.) tiliga yoqlashmoq tamoyuli borlig'idir».

Tabiiyki, roman muallifi jurnalning «maqola va she'rlar o'rta imlo bilan yozilsa va yangicha yozib idorani mashaqqatga solinmasa edi» degan iltimosiga rioya qiladi. Chunki «*O'tkan kunlar*» matnida yangidan shakllanib kelayotgan adabiy til bilan birga an'anaviy mumtoz o'zbek nasrining ayrim unsurlari ham qo'llangan edi. Shu uyg'unlik roman tiliga go'zallik bag'ishlaydi; yangicha til mutlaqo quruq va sun'iylashib qolishi mumkin bo'lganidek, butunlay mumtoz nasr tilidan foydalanish ham, ehtimol, ma'rifattalab o'quvchilar uchun nisbatan og'irlik qilar edi. Julqunboyning boshlab yozgan asarlari tili bilan «*O'tkan kunlar*» romani qiyoslanganda tabiiylik, samimiylik, xalq jonli tiliga yaqinlik yaqqol seziladi. Adibning nasrdagi ilk tajribasi bo'lgan «Juvonboz»ning tilini Oybek «duoyi salom» tili, jonsiz, bo'yoqsiz, «quruq» bir til, deb tanqid qiladi; uning «xalq tilidan juda uzoq» ekanini aytadi. Oradan hech qancha vaqt o'tmaydi. Adib «Uloqda» hikoyasini e'lon etadi va u «tirik, obrazli bir til» bilan yozilgan edi. Abdulla Qodiriy asardan asarga badiiy tasvir, uslub va poetik til jihatidan ham yuksalib boradi. Oybek «Abdulla Qodiriyning ijod yo'li» risolasida yozuvchi romanlari tili masalasi o'rta qo'yilganda: «*O'tkan kunlar*» romanida yozuvchi til ustida katta mahorat ko'rsatadi. Romanning tili, haqiqatan boy, bo'yoqli, sodda, ifoda kuchi zo'r, massaga anglashilarli bir tildir. O'zbek



adabiy tilining shakllanishida bu asarning roli, shubhasiz katta»; «O'tkan kunlar» yangi o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida katta rol o'ynaydi», degan teran fikrlarni yozilgan.

Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O'tkan kunlar” romani o'zbek adabiyotining roman janridagi ilk asardir.

1924-1926 yillarda har bir bo'limi alohida kitob holida nashr etiladi. Roman orqali Abdulla Qodiriy xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi, “tariximizning eng kir, qora kunlari” “xon zamonlari”ning mudhish tarixiy jarayonlari haqida so'z ochib, bundan xalqqa saboq bermoqchi bo'ladi. Adib taraqqiyparvar ziyolilar qatorida turib millat taqdiri ustida astoydil qayg'uradi, najot yo'lini esa adabiyotda ko'rgani bois milliy ruhdagi asarlar yaratishga kirishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G., Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti, darslik, -T.; 2001.
2. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari,-T.;2006.
3. Jalolov A. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek ma'rifatparvar-demokratik adabiyoti,- T.;1996.
4. Karimov N. va boshqalar, XX asr o'zbek adabiyoti tarixi,-T.;1999.
5. Qosimov B va boshqalar, Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti,- T.; 2004.